



O‘ZBEKISTON JAHON DIPLOMATIYA MARKAZLARIDAN BIRIGA AYLANMOQDA

27-noyabr kuni mamlakatimizga yangi tayinlangan xorijiy elchilar tomonidan ishonch yorliqlarini topshirishga bag‘ishlangan tantanali marosim bo‘lib o‘tdi.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev favqulodda va muxtor elchilar — Gretsiya Respublikasidan Paraskevi Seveleki, Indoneziya Respublikasidan Siti Ruhayni Juxayatin, Latviya Respublikasidan Girts Yaunzems, Fransiya Respublikasidan Valid Fuk, Rossiya Federatsiyasidan Aleksey Yexov,

Yaponiyadan Kendzi Xirata va Tojikiston Respublikasidan Nasriddin Ismatullodan ishonch yorliqlarini qabul qildi. Davlatimiz rahbari Yangi O‘zbekistonda o‘z missiyasini boshlayotgan diplomatik vakolatxonalar rahbarlarini samimiy tabrikladi.

Hozirgi beqaror davrda, butun dunyoda murakkab geosiyosiy va iqtisodiy muammolar keskinlashib borayotgan bir paytda diplomatlarning ishi tobora muhim ahamiyat kasb etayotgani ta’kidlandi. — Sizlar bir necha oydan buyon yurtimizda bo‘lib, bugungi kunda mamlakatimiz qanday



judal o‘zgarishlar ruhi bilan yashayotganiga va jahon diplomatiya markazlaridan biriga aylanib borayotganiga shaxsan guvoh bo‘lyapsiz, — dedi Prezidentimiz. Xususan, joriy yilda Toshkent xalqaro investitsiya forumi va Xorijiy investorlar kengashi yig‘ilishi, Parlamentlararo

ittifoqning 150-yubiley assambleyasi, “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” birinchi sammiti va Xalqaro iqlim forumi, UNESCO Bosh konferensiyasining tarixiy sessiyasi hamda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining sammiti muvaffaqiyatli o‘tkazildi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining 13 ta rezolyutsiyasi qabul qilindi.

Davomi 2-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlati.

YEVROPA ITTIFOQI BILAN AMALIY HAMKORLIKNI KENGAYTIRISH MUHIMLIGI TA’KIDLANDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev amaliy tashrif bilan mamlakatimizda bo‘lib turgan Yevropa Ittifoqining Xalqaro sherikliklar bo‘yicha komissari Yozef Sikela hamda Kengayish masalalari bo‘yicha komissari Marta Kos boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni joriy yil oktyabr oyida Bryusselga oliy darajadagi tashrif davomida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish orqali rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

Yevropa Ittifoqi vakillari O‘zbekiston Prezidentiga Yevropa kengashi Prezidenti Antoniu Koshta va Yevropa komissiyasi Prezidenti Ursula fon der Lyayenning samimiy salomlarini yetkazdi.

O‘zbekiston yetakchisi yevrokomissarlarni Toshkentda “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” uchinchi iqtisodiy forumi va Transkaspiy transport yo‘lagi hamda o‘zaro bog‘liqlik bo‘yicha investorlar forumi muvaffaqiyatli o‘tkazilgani, yakunda mintaqaviy miqyosdagi bir qator yangi qo‘shma loyihalar ishga tushirilgani bilan tabrikladi.

Davomi 2-betda

O‘ZARO ALOQALARNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Transkaspiy transport yo‘lagi bo‘yicha investorlar forumida ishtirok etish uchun Toshkentga kelgan Fransiya Respublikasi transport vaziri Filipp Tabaroni qabul qildi.

Uchrashuv avvalida yuqori martabali mehmon davlatimiz rahbariga Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuel Makronning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi. Joriy yil mart oyida Parijga amalga oshirilgan oliy darajadagi tarixiy tashrif davomida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish orqali O‘zbekiston va Fransiya o‘rtasidagi strategik sheriklik, ayniqsa, transport-logistika sohasidagi

hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalari muhokama qilindi. Uchrashuvda fuqarolik aviatsiyasida aloqalarni kengaytirish, transport sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, shu jumladan, yaqinda tashkil etilgan O‘zbekiston — Fransiya universiteti imkoniyatlaridan foydalanishga alohida e’tibor qaratildi.

O‘za

STATISTIKA SOHASIDAGI ISTIQBOLLI REJA VA LOYIHALAR KO‘RIB CHIQLIDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining hisoboti bilan tanishdi.

Joriy yil fevral oyida “Statistika ishlarini tashkil etish va yuritish tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident farmoni qabul qilingan edi. Farmonga ko‘ra, Prezident huzuridagi Statistika agentligi Milliy statistika qo‘mitasi sifatida qayta tashkil etildi hamda statistika ishlarini samaradorligini

yanada oshirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilandi.

Yig‘ilishda o‘tgan davrda amalga oshirilgan ishlar ko‘rib chiqildi.

Jumladan, idoralararo ma’lumot almashinuvi kengaytirilib, 60 ta integratsiya joriy etilgani natijasida hisobot yuklanmasi 27 foizga qisqardi.

Davomi 2-betda

Sirojiddin SAYYID,
O‘zbekiston xalq shoiri

SAMARQAND saboqlari

Yaratgandan buyuk timsol
yana kavn-u makondadir,
Arz-u samo barobardir —
tenglik Yer-u osmondadir.

Har bir inson yangi davr-u
Zamon bo‘lib kelgay emish,
Rizq-u ro‘zing Zamin degan
muazzam dasturxondadir.

Har bir odam bir olam-u,
butun olam bir odamiy,
Bani bashar bir tosh yanglig‘
barcha bir palaxmondadir.

Xosiyatli kunlaringdir —
xos niyatli bu kunlaring,
Duolaring tillaringda
har sahari mardondadir.

Men olamni maydon desam —
olam-olam ma’nosi bor:
Maydon O‘zbekistonmi yo
O‘zbekiston maydondadir.

Bu maydonda turmoq oson
emas demish bobolaring,
Barhayotdir hikmatlari
har davr-u har zamondadir.

Shonli tarixlardan so‘ylar
gumbazlar-u minoralar,
Amir Temur bobo ruhi
boshing uzra posbondadir.

Sohibqiron saltanati, demak,
shunda yaralmishdir,
Samarqanddan boqib tursang
olam ajib javlondadir.

Behzod bobo agar bugun
rasming chizmish bo‘lgay, bundoq:
“Qur’on” bo‘lsa bir qo‘lingda,
biri — qilich, qalqondadir.

Sulton Ulug‘bekdan yodgor
madrasalar hamon ochiq,
Chekmish neki ranj-u zahmat
bo‘lsa ilm-u irfondadir.

Navoiy va Jomiy hazrat
bunda ziyo taratmishlar,
Gangir-gungur gurunglari
hanuzgacha ayvondadir.

Bu Markaziy Osiyodir,
shunda hozir Ovrupo ham,
Ovrosiyo bir-biriga
ham mezbon, ham mehmondadir.

Bizga Nizomiy boboni
tilgironidan ulab bering,
She’r-u g‘azal ganji axir
Ganja, Ozarbayjondadir.

Go‘yo hozir Klavixo
tushib kelmishday “Boing”dan,
Yangi Samarqandga boqib,
tili lol-u hayrondadir.

Kechgan barcha ishdan ogoh
Ibn Arabshohdan so‘rang,
“Afrosiyob”dan tushiboq
hozir Urgut tomondadir.

Buyuk Ipak yo‘lidir bu,
ne karvonlar kelib ketmish,
Butun olam ahli bukun
bir saroy, bir qo‘rg‘ondadir.

Bir temir yo‘l uchun salkam
o‘ttiz yillar kerak bo‘lmish,
Yangi zamon jilolari
qadimiy Zarafshondadir.

Mag‘rib bilan Mashriq desam,
jon-u dillar tutash kelgay,
Qancha orzu va niyatlar
Parij, Rumo, Londondadir.

Luvrdagi san’atingdan
so‘ylar bo‘lsam hayratlarin,
Ajib zavq-u hayajonlar
faranglar-u Makrondadir.

“Euronews” dasturiga
rahmatlarim bordir mening,
Dovrug‘ingni bildi olam
Ispanmi yo Olmondadir.

Gyotening men “Sharq-u G‘arb
devoni”dan qarzarim bor,
Bunday tole na Dante, na
Geyne va na Bayrondadir.

Bir ezgu ish ellar aro
ko‘p ishlarga barham bergay,
Bag‘ir ochsang — bag‘ir ochgay
Chin-Mochin yo Yopondadir.

Bu o‘lkalar bir mustohab bo‘lib
tugilguvi besh panjadir,
Bir “Xamsa”dir yaxlit kitob —
bir jild-u besh dostonadir.

O‘zbek desam, asrlarning
gulduros jam bo‘lgaydir,
Qancha armon — qirg‘iz, qozoq,
tojik bilan turkmondadir.

Odamlarning hali jabr-u
zafolari bitgan emas,
Ming bir ohu afg‘on hamon
bir jafokash afg‘ondadir.

XX asr, deyman,
topib bergil Orolimni,
Dilim giryon, yoqam vayron,
bag‘rim qum-u to‘zondadir.

Najotga zor bugun suv ham,
nabotot ham, hayvonot ham,
Bahrun-najot chingirig‘i
har nahr-u har ummondadir.

Ey Samarqand, olamshumul
kengashlarig izzis ketmas,
Inshoolloh, tinchlik, tenglik
bir kun ro‘yi jahondadir.

Hazrat Imom Buxoriydan
“hubbul Vatan...” so‘ylar bo‘lsam.
Ko‘rgan xalqi olam shod-u
ko‘rmaganlar armonadir.

Bahri dilim bir quyoshli
mamlakatdag yorishguvi,
Bir o‘zbekni ko‘rsam agar
Varshavmi, Vashingtonadir.

Ey matonat dunyosiga
fotihlarni bergan diyor,
Mangu so‘nmas yulduzlaring
to‘zgulik komrondadir.

Karvon desam, zo‘r karvonga
O‘zing karvonboshidirsan,
Davron desam — davr-u zamon
zo‘r sobihi davrondadir.

Yaratgandan so‘rorim bor:
shu ellarni O‘zing asra,
Dunyo turguncha tursin to
davlati al-omondadir.

STATISTIKA SOHASIDAGI ISTIQBOLLI REJA VA LOYIHALAR KO‘RIB CHIQILDI

Boshlanishi 1-betda

Shu jumladan, soliq organlarining onlayn-kassa ma'lumotlari, elektr energiyasi va tabiiy gaz iste'moli, qishloq xo'jaligi ekin maydonlari va hosil to'g'risidagi ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan holda qabul qilish yo'lga qo'yildi.

Yig'ilishda yalpi milliy mahsulotning nominal hajmini hisoblashni yaxshilash bo'yicha qilingan ishlar yuzasidan axborot berildi.

Bozor xizmatlari, qurilish, qishloq xo'jaligi, sanoat va byudjet xarajatlarini statistika bilan yanada kengroq qamrab olish natijasida qo'shimcha 81 trillion so'm qo'shilgan qiymat inobatga olinib, 2024-yil yakunlari bo'yicha YIM hajmi 115 milliard dollardan 121,4 milliard dollarga oshdi.

Shu bilan birga, yashirin iqtisodiyot ulushi 2017-yildagi 50 foizdan 2024-yilda 35 foizgacha kamaygani ta'kidlandi. Yaqin istiqbolida yana 79 trillion so'mlik norasmiy iqtisodiyotni statistika bilan qamrab olish, yashirin iqtisodiyot ulushini 29 foizgacha tashirish imkoniyati mavjudligi ma'lum qilindi.

Prezidentimiz global bozorda elektron savdo hajmi jadal o'sayotganini ta'kidladi. Mamlakatimizda bu sohaning o'sish sur'atlari 9-11 foizga yetishi kutilmoqda. Shuningdek, axborot texnologiyalari va masofaviy xizmatlar, frilans kabi yangi sohalar tez rivojlanayapti. Milliy statistika

tizimi oldida bu sohalarini ham qamrab olish bo'yicha muhim vazifalar turgani ko'rsatib o'tildi.

Iste'mol narxlarini indeksini tuzishda ma'lumotlarni qo'lda yig'ish amaliyotidan voz kechib, AT va sun'iy intellekt texnologiyalariga bosqichma-bosqich o'tish zarurligi ta'kidlandi.

Milliy statistikani zamonaviy va xalqaro darajada tan olinadigan tizimga aylantirish masalalari ham ko'rib chiqildi.

Xalqaro "Deloitte" konsalting kompaniyasi tomonidan 23 ta tashabbus va 70 ta loyiha ishlab chiqilgani aytiladi. Ularni bosqichma-bosqich amalga oshirish statistikaning aniqligi, tezkorligi va shaffofligini oshirishga xizmat qilishi ta'kidlandi. Bundan tashqari, Jahon banki bilan birgalikda 2030-yilgacha bo'lgan davrda statistikani rivojlantirish milliy strategiyasi ishlab chiqilmoqda.

Kelgusi yil yanvar oyida boshlanadigan aholini ro'yxatga olish ishlariiga tayyorgarlik masalalari muhokama qilindi.

Hozirgacha 9008 ta mahalla bo'yicha tashkiliy rejalarni tasdiqlandi, ro'yxatga olishda ishtirok etuvchi 60 ming nafardan ziyod "mahalla yetiligi" vakillari va mas'ul xodimlari uchun maxsus o'quv kurslari o'tkazildi.

Ro'yxatga olish elektron shaklda — maxsus portal orqali o'tkaziladi.

Ma'lumotlar portalga ro'yxatga oluvchilar tomonidan uyuma-uy yurib, planshet qurilmalari yordamida kiritiladi. Jarayonlar geoaxborot tizimi orqali monitoring qilib boriladi. Buning uchun ro'yxatga olinadigan xonadonlar va turar joylarning geomanzillari shakllantirildi.

Davlatimiz rahbariga hududlarda bu boradagi ishlarining tayyorgarlik holati yuzasidan hisobot berildi.

Ro'yxatga olish jarayonlarini yanada takomillashtirish yo'llari, shu jumladan, raqamli platformalardan foydalanish ko'nikmalarini oshirish, xorijiga ishlash, o'qish yoki xizmat safariga ketgan fuqarolarni ro'yxatga olish, uyuma-uy va onlayn to'plangan ma'lumotlarni integratsiya qilish bo'yicha aniq yechimlar ishlab chiqish zarurligi qayd etildi.

Prezidentimiz aniq, tezkor va ishonchli statistika davlat siyosatini belgilash, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishning muhim omili ekanini qayd etib, sohani strategik yondashuv asosida transformatsiya qilishni davom ettirish topshirildi.

Mutasaddilarga aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirlarini yuqori saviyada o'tkazish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

O'ZA

YEVROPA ITTIFOQI BILAN AMALIY HAMKORLIKNI KENGAYTIRISH MUHIMLIGI TA'KIDLANDI

Boshlanishi 1-betda

O'zbekiston — Yevropa munosabatlari jadal rivojlanib borayotgani, ikki va ko'p tomonlama hamkorlikning yangi keng qamrovli kun tartibi shakllangan mamnuniyat bilan qayd etildi.

Bu yil Yevropa Ittifoqi bilan Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitim (KSHHB) imzolandi, Samarqand va Bryusselda sammitlar

bo'lib o'tdi, O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi yuzasidan Yevropa Ittifoqi bilan muzokaralar yakunlandi.

Yil boshidan buyon tovar ayirboshlash qariyb 7 foizga o'sdi. KSHHBning amaliyotga joriy etilishi savdo hajmi va investitsiyalar oqimining sezilarli darajada oshishiga xizmat qilishi ta'kidlandi.

Savdoni kengaytirish va diversifikatsiya qilish uchun hamkorlikning institutsional mexanizmlarini yanada takomillashtirish,

sanoat kooperatsiyasi, transport, raqamlashtirish, muhim mineral, energetika, sog'liqni saqlash va boshqa ustuvor sohalarda hamda yangi qo'shma investitsiya loyihalarini ishlab chiqish zarurligi ta'kidlandi.

Xalqaro va mintaqaviy kun tartibidagi dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

O'ZA

O‘ZBEKNING JAVOHIRI JAHONNI LOL QOLDIRD

Shaxmat bo'yicha jahon kubogini qo'lga kiritib, dunyo ahliga yangi O'zbekiston yoshlarining tafakkuri nechog'liq yuksakligini ko'rsatgan shaxmatchimiz Javohir Sindorov kuni kecha tantanali kutib olindi.



Iftixor

Davlatimiz rahbari boshchiligidagi shu hafta Olimpiya shaharchasida boshlangan tatanavor sport bayrami tarixiy g'alabalarga ulanib, katta shodiyonaga aylandi. Prezident Olimpiadasi sport musobaqasining tantanali ochilish marosimi vaqtida o'zbek grossmeysteri Javohir Sindorov shaxmat bo'yicha jahon kubogi sohibi bo'lgani to'g'risidagi xushxabar millionlab ko'ngillarga g'urur, o'zgaracha shukuh olib kirdi.

Bayram shodiyonlari Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroportida davom etdi. U yerda FIDE jahon kubogida zafar qugchgan sportchimizni tantanali kutib olish marosimi bo'lib o'tdi. Hukumat a'zolari, sport mutasaddirlari, keng jamoatchilik vakillari, shaxmat ishibozlari ishtirokidagi tadbirga Prezidentimizning "Sindorov Javohir Sanjarbekovichga

"O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi" faxriy unvonini berish to'g'risida"gi farmonini Bosh vazir Abdulla Aripov o'qib eshittirdi.

Tadbir ishtirokchilari Javohir Sindorov va sportchining yaqinlari, butun xalqimizni tarixiy g'alaba bilan muborakbod etdi. Shu va boshqa g'alabalar o'z-o'zidan bo'lmayotgani, avvalo, shaxmat o'zbek xalqi uchun oddiy o'yin emas, tarixiy qadriyatlaridan biri ekanini qayd etildi.

Sohibqiron Amir Temur ham jang paytida shatranj o'ynab, harbiy taktikalarni belgilagan haqida tarixiy manbalarda ma'lumotlar keltirilgan. Undan ham olis tarixga nazar tashlasak, Surxondaryo viloyatidagi Ayritom arxeologik manzilidan I-III asrlarga oid fid suvayidan yasalgan shaxmat donalari topilgan. Bugun ham shaxmat o'zbek oilalarining sevimli sport turlaridan.

Javohir Sindorovgashu yil 25-30-dekabr kunlari Qatar poytaxti Dohada bo'lib o'tadigan jahon chempionati hamda 2026-yil Samarqand shahrida o'tkaziladigan 46-butunjahon shaxmat olimpiadasida O'zbekiston sharafini munosib himoya qilishiga ishonch bildirildi.

Keng jamoatchilik vakillari ishtirokida sportchimizga Prezidentimiz sovg'asi — 3 xonali xonadon kaliti va pul mukofoti, shaxmatchining murabbiyi Roman Vidonyakka pul mukofoti tantanali topshirildi.

— Yangi O'zbekiston farzandi ekanimdan faxrlanaman, — deydi Javohir Sindorov. — Xalqaro darajada sportchi bo'lib yetishishimga sharoit yaratib bergani uchun davlatimizdan cheksiz minnatdorman. Albatta, 27 kun mobaynida Hindistonda kechgan musobaqada qatnashish oson bo'lmadi. Keyingi turnirlarda ham muvaffaqiyat qozonib, yurtidoshlarimiz, Prezidentimiz ishonchini oqlayman, shaxmat tojini O'zbekistonga olib kelaman.



FIDE homiyligida ikki yilda bir marta o'tkaziladigan jahon kubogida g'alaba qozonish oson emas. Hamyurtimiz dunyoning 200 dan ortiq sara shaxmatchisi qatnashgan turnirda tengsiz ekanini isbotladi. Ushbu musobaqa da'vogarlar turnirida ishtirok etish yo'llanmasini taqdim etishi bilan ham ahamiyatli. Javohir Sindorov kelgusi yili mart oyida Kiprda o'tkaziladigan mazkur turnirda ishtirok etadi.

Javohir 2017-yil oktabrda xalqaro usta unvonini qo'lga kiritgan, 2018-yil grossmeyster darajasiga erishgan. Sportchi o'sha yilning sentyabrida o'tkazilgan shaxmat bo'yicha o'smirlar o'rtasidagi jahon chempionatida ikkinchi o'rinni egalladi. Yosh, umidli sportchimizni oldinda bundan ham yuksak marralar kutib turganiga ishonchimiz komil.

Sanjar ESHMURODOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri



Munosabat

URGUTGA TEMIR YO'L BILAN ULKAN IMKONIYATLAR KELDI

Prezidentimizning Samarqand viloyatiga tashrifi hududni yaqin istiqbolida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi farovonligini oshirish nuqtayi nazaridan juda samarali bo'ldi. Zero, davlatimiz rahbari yurtuql va kamchiliklarni ko'rsatib o'tish bilan birga samarqandliklar oldiga jadal taraqqiyotga erishish borasida yangi vazifalarni ham qo'ydi.

Tashrifda iqtisodiy ahamiyati jihatidan juda katta, ta'bir joiz bo'lsa, tarixiy voqeilik ham kuzatildiki, bu Urgut tomon yotqizilgan temir yo'l ishgah tushirilishi bilan bog'liq. Ha, bundan bir necha yillar avval yarim milliondan ortiq aholi yashaydigan, respublikadagi aholisi eng katta tumanga temir yo'l borishi orzu edi, bugun esa bu real haqiqatga aylandi.

Mazkur loyiha "Urgut" erkin iqtisodiy zonasidagi korxonalarining eksport va import operatsiyalarini amalga oshirish imkoniyatini kengaytirish, umuman, tog'li tumanda sanoatni yanada rivojlantirish va aholiga qulaylik yaratishga xizmat qilishi bilan ahamiyatli.

Urgutga temir yo'l keladi deb o'ylab ham ko'magan edik. To'g'risini aytam, bunday bunyodkorlik tushimizga ham kirmagandi. Shuning uchun ayni kunlarda urgutliklarning quvonchi, his-hayajoni cheksiz. Yana bir quvonchli xabar esa 2025-yil qadimiy Urgut uchun tarixiy davr bo'lishidan darak berdi. Ya'ni tumanda hatto aeroport qurish masalasi ham ko'tarildi-da.

Mamlakatimizning qulay geografik joylashuvi va sanoatning barqaror rivojlanishi temir yo'l transporti ahamiyatini yanada oshirmoqda. Haqli ravishda aytish kerakki, so'nggi yillarda O'zbekiston temir yo'llari ulkan o'zgarishlarga yuz tutdi va qator yutuqlarni qo'lga kiritdi.

Temir yo'l katta tarmoq, uni transformatsiya qilish ham, tabiiyki, ko'p vaqt va mablag' talab etadigan jarayon. Bugun ancha yillar transformatsiyadan chetga qolgan soha yangi bosqichga chiqmoqda.

Transporti qulayliklari mamlakat rivojini ko'rsatuvchi va buni ta'minlovchi omillardan biri. Yurtimizda soha infratuzilmasi yangilanib, sharoitlar kengaytirilayotgani o'z natijasini bermogda. Amalga oshirilayotgan loyihalar shunchaki transport infratuzilmasini rivojlantirish emas, balki hududlarning barqaror taraqqiyotini ta'minlashga qaratilgan keng qamrovli siyosatning bir qismi.

Yana bir muhim jihat, yuk tashish logistikasi bilan bog'liq. Dunyo tajribasida temir yo'l-da mahsulot tashish bilan bog'liq xarajalar juda arzon hisoblanadi. Toyloqda



ham, Urgutda ham maxsus iqtisodiy zonalar mavjud, yana yangi logistika markazlari bunyod etilyapti.

Shu paytgacha bu tumanlardan mahsulotlar katta yuk tashish mashinalarida olib ketilib, Samarqandda yuk poyezdlariga yuklangan. Yoki teskarisi. Bu tadbirkorlar uchun noqulaylik tug'dirishi bilan birga ikki karra xarajatni ham talab etardi.

Sanoat, ishlab chiqarish, turizm, umuman, temir yo'lning kelishi ko'plab tarmoqlarga juda katta qulayliklar yaratadi va rivojida muhim o'rinni tutadi. Bu esa mazkur tumanlar iqtisodiyoti va odamlar turmush tarzi yaxshilanishi uchun katta imkoniyat.

Joriy yil fevral oyida qurilishi boshlangan ushbu temir yo'lning umumiy uzunligi 55 kilometrni tashkil etadi. Loyiha doirasida ikkita vokzal, "Urgut" erkin iqtisodiy zonasida ikkita yuk stansiyasi hamda bir qator ko'priklar barpo etildi. E'tiborsiz, mazkur liniyani kelgusida to'liq elektrlashtirish rejalashtirilgan.

Poyezdlar qatnovi yo'lga qo'yilishi orqali yiliga 359 ming yo'lovchi va 8,2 million tonna yuk tashish imkoni yaratiladi. Yo'nalish Samarqand shahri, Toyloq va Urgut tumanlari aholisi uchun xavfsiz va zamonaviy transport xizmati taqdim etishi bilan ahamiyatli. Shuningdek, ichki turizm rivojiga katta turtki beradi.

Urgut tumani nafaqat ishlab chiqarishda, balki turizm sohasida ham o'z o'rni ega. Temir yo'l kelishi aholi uzog'ini yaqin qilish bilan birga ishlab chiqarilgan yuqori sifatli mahsulotlarni xorij bozoriga eksport qilish imkoniyatini oshiradi. Xorijlik sayyohlar oqimini ko'paytiradi.

Bir so'z bilan aytganda, temir yo'l tizimidagi har bir loyiha, eng avvalo, aholiga qulaylik yaratish, hudud iqtisodiyotini rivojlantirish va sayyohlik jozibadorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Maxvoln BOBOXONOV, Xalq deputatlari Samarqand viloyati kengashi deputati

hududlararo muloqotni faollashtirish muhimligi ta'kidlandi.

Yaponiya bilan strategik sheriklikni kengaytirish — tashqi siyosatimizning ustuvor yo'nalishlaridan biri.

O'zbekistonda Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA), Yaponiya tashqi savdo tashkiloti (JETRO) va Nagoya universitetining vakolatxonalarini samarali faoliyat yuritmoqda.

Telekommunikatsiya, energetika, sog'liqni saqlash, infratuzilmani rivojlantirish, ta'lim va turizm sohalarida 8 milliard dollarlik loyihalar amalga oshirilmoqda.

Strategik muloqotning birinchi yig'ilishi avgust oyida, o'tgan oy esa Samarqandda Rektorlar forumi bo'lib o'tdi. Osakada "Expo — 2025" ko'rgazmasi doirasida O'zbekiston Milliy kuni muvaffaqiyatli tashkil etildi.

Keyingi oy Tokioda bo'lib o'tadigan oliy darajadagi muzokaralar va ishbilarmon doiralarning muloqotlari ikki tomonlama hamkorlikka yangi sur'at bag'ishlashiga ishonch bildirildi.

Umumiy siyosiy iroda tufayli so'nggi yillarda O'zbekiston — Tojikiston munosabatlari strategik sheriklik va ittifoqchilik darajasiga ko'tarildi.

Chegara masalalari to'liq tartibga solindi va transport aloqalari tiklandi. Parlamentlar, hukumatlar, hududlar va ishbilarmon doiralor o'rtasidagi hamkorlik kuchaydi.

O'zaro savdo 5 barobardan ziyodga oshib, 1 milliard dollarga yaqinlashdi. "Oybek — Fotexobod" erkin chegaraldil savdo zonasi va "Andarxon" savdo-logistika markazining tashkil etilishi tovar ayirboshlashni karrasiga oshirishga xizmat qilishi ta'kidlandi.

Sanoat, transport, geologiya, energetika, qishloq xo'jaligi va suv xo'jaligi, turizm, ta'lim va madaniyat sohalarida qo'shma loyihalarni amalga oshirish uchun salohiyat borligi qayd etildi.

Marosim yakunida davlatimiz rahbari yangi tayinlangan elchilarga sharafli faoliyatida ulkan muvaffaqiyatlar tiladi, hamkorlikni mustahkamlash uchun barcha mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanishga chaqirdi, hududlar va xususiy sektor vakillari bilan faol hamkorlik qilishni tavsiya qildi.

O'z navbatida, xorijiy diplomatlar samimiy qabul va yaratilgan sharoitlar uchun minnatdorlik bildirib, O'zbekiston bilan ko'p qirrali hamkorlikni faol rivojlantirish uchun professional tajribasi va bilimlarini to'liq safarbar etishga tayyor ekanliklarini ta'kidladilar.

O'ZA



Nodir MAHMUDOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

KIMLAR UCHUN HAVAS BIZNING SHAVKATIMIZ, SHONIMIZ YOXUD MILLIY SPORT SIYOSATINING YANGI BOSQICHI

**BUNYOD ETILGAN
OLIMPIYA SHAHARCHASI
ODDIY SPORT INSHOOTI
EMAS, BALKI YANGI
O‘ZBEKISTON
SPORT SIYOSATINING
ISTIQBOLINI
BELGILAYDIGAN
TARIXIY LOYIHADIR.**

Javohir Sindorov shu paytgacha FIDE jahon kubogini yutgan eng yosh (19 yosh) chempion bo‘lib tarixga kirdi! Hindistonning Goa shahri mezbonlik qilgan FIDE jahon kubogi — 2025 g‘olibligi Javohirga kelasi yili mart oyida Kiprda o‘tkaziladigan nomzodlar turnirida ishtirok etish uchun rasmiy yo‘llanmani ham taqdim qildi.

I
Sohada yangi faoliyat boshlagan davrimda tahririyat tomonidan poytaxt mahallalarining birida foydalanishga topshirilgan kichik stadion — bolalar sport maydonchasidan reportaj tayyorlash haqida topshiriq oldim. Mustaqillikning dastlabki yillari, respublika endi-endi oyoqqa turib, o‘zini o‘nglab olish harakatiga zo‘r bergan vaqlar. Mahalla miqyosida stadion qurilgani mahalliy aholi uchun ham, biz, jurnalistlar uchun ham olamshumul voqea sifatida qabul qilinadi.

Yodimda, menga intervyu bergan mutasaddirlar ham, o‘sha maydonchada to‘p tepayotgan murg‘ak qalbli bolajonlar ham ko‘zlari quvonchdan, hayratdan yonib, qoniqish bilan to‘lib-toshib so‘zlagan edi. Qolaversa, o‘zim ham bu haqida to‘qlinlab yozganman. Vaziyat shunaqa bo‘lgan.

Yosh mustaqil davlat uchun sport tizimidagi bu kabi qurilish, kichik bunyodkorlik ishlari quvonchli voqea sifatida talqin qilinishi tabiiy hol. Keyin rivojlanish, taraqqiyot, sa‘y-harakatlar davom etdi. Sekin-sekin yozilajak mavzular mahalladan tuman, shahar, respublika miqyosidagi qurilish, tiklanish, muvaffaqiyat, g‘alaba va bunyodkorliklarga ko‘chdi.

Yangi O‘zbekistondagi rivojlanish davri, tizimli islohotlar ortidan esa yurtimizning imkoniyatlari yirik va muhim xalqaro miqyoslarga da‘vogar bo‘lib turibdi. Endi bizga ichki imkoniyat va salohiyatimizni ishga solib, dunyo arenalarida bo‘y ko‘rsatish, milliy ruhi namoyish qilish yarashadi. Bu shonli, shuhratli va shavkatli yo‘lga chiqib olganimiz natijasida bizga beg‘araz havas qiluvchilar ko‘paydi. Dunyodagi eng nufuzli va yetakchi nashrlar sahifalarida o‘zbek sportining yutuq va natijalari omillari ta’hliliga bog‘ishlangan maqolalar tez-tez chop etila boshladi. Ayni mavzu oliy sport doiralarning muhokama markazidan joy olishi oddiy holga aylandi.

Boisi, so‘nggi yillarda yurtimizda sport sohasida ham ulkan islohotlar avj pallaga kirdi. Davlatimiz rahbarining tashabbusi va davlat dasturlarida belgilangan aniq maqsadli yo‘nalishlar orqali sport nafaqat sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, balki mamlakatimiz nufuzini xalqaro maydonda yuksaltirishning muhim vositasiga aylandi.

Sohada amalga oshirilayotgan ishlar, ayniqsa, yoshlar tarbiyasi, ularning jismoniy va ma‘naviy kamolotini ta‘minlashda ulkan ahamiyat kasb etmoqda. Islohotlar jarayonida asosiy e‘tibor “Sog‘lom avlod — sog‘lom kelajak” tamoyiliga qaratilgan. Zero, kuchli davlat qurishning, jamiyatda ma‘naviy va intellektual yuksalishga erishishning poydevori sog‘lom va barkamol avloddir.

Ayni boisi, yurtimizda sport infratuzilmasini rivojlantirish, zamonaviy sport majmualarini barpo etish, ommaviy sportni keng targ‘ib qilishga katta e‘tibor berilayotir. So‘nggi yillarda sohani rivojlantirishga qaratilgan qator dasturlar qabul qilindi. Bu, o‘z navbatida, aholi, ayniqsa, yoshlarning sportga qiziqishini oshirdi.

Natijalar esa birma-bir bo‘y ko‘rsatib bormoqda. O‘tgan yili Parijdagi Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlarida mard va bahodir sportchilarimiz chinakam jasorat ko‘rsatdi. Ana shunday zafarli yurishning davomi sifatida joriy yilda yoshlarimiz jahon universiadasida 13-o‘rinni, Bahraynda o‘tkazilgan Yoshlar o‘yinlari va Saudiya Arabistondagi Islom birdamligi musobaqalarida faxrli 2-o‘rinni egalladi. Ayniqsa, o‘g‘il-qizlarimiz jahon, Osiyo va Olimpiya o‘yinlarida 50 dan ortiq rekord natijaga erishgani yurtimizning xalqaro Olimpiya harakatidagi o‘rni va nufuzini yaqqol ko‘rsatib turibdi. Bunday yutuqlarni qo‘lga kiritishda sportchilar uchun zamonaviy shart-sharoitlar yaratish, tayyorgarligini xalqaro mezonlar asosida tashkil etishning ahamiyati yanada oshadi.

II

Shu maqsadda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 2022-yil 9-noyabr kuni tariximizda ilk bor Olimpiya shaharchasi qurilishiga kirishildi. Bu majmua nafaqat zamonaviy sport infratuzilmasi, balki milliy sport siyosatida yangi bosqichning ramziga aylandi.

Ushbu shaharcha, Prezidentimiz ta‘biri bilan aytganda, xalqimizning yuksak bunyodkorlik salohiyati va o‘zbek sportining olamshumul yutuqlari timsoli bo‘lib qolishi lozim edi. Oradan qisqa vaqt o‘tdi, bu orzu amaliy hayotga ko‘chdi. Bugun Olimpiya shaharchasi nafaqat yurtimiz, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasidagi eng yirik va zamonaviy sport maskani sifatida yuz gektardan ortiq maydonda barpo etildi. Uch yil davomida ro‘yobga chiqarilgan loyiha qiymati qariyb 290 million dollarni tashkil qildi. Noyob loyiha Xitoyning “CAMC Engineering” kompaniyasi tomonidan xalqaro standartlar asosida amalga oshirildi.

Shaharcha 5 ta asosiy sport majmuasini o‘z ichiga olgan: velodrom, stadion, suv sporti saroyi, jamoaviy va yakkakurash sport turlari majmualari. U nafaqat sportchilar, balki tomoshabinlar, murabbiylar, turli sport federatsiyalari hamda ilmiy-tadqiqot

uzoqni ko‘zlagan, strategik ahamiyatga ega loyiha. Har bir sport inshooti nafaqat yuqori darajadagi musobaqalarni qabul qilish, balki yoshlar sportini rivojlantirish, sport ilmi va tibbiyotini kuchaytirish, shu bilan birga, mamlakat nufuzini xalqaro maydonda yuksaltirishga xizmat qiladi.

Olimpiya shaharchasi faqat sport inshootlari emas, balki sport fanlari markazi sifatida ham tashkil etilgan. Bu yerda Sport vazirligi, Antidoping agentligi, Davlat sport akademiyasi, Jismoniy tarbiya ilmiy-tadqiqot instituti, Sport turlarini rivojlantirish markazi joylashtirilgan. Shu tariqa sport ilmi, tibbiyoti va amaliyoti uyg‘unlashgan holda ish olib boriladi.

Davlatimiz rahbari joriy yil 18-avgust kuni Toshkent shahrida qurib bitkazilgan Olimpiya shaharchasi, Yuqori Chirchiq tumanidagi Milliy futbol markazi faoliyati hamda yangi turizm infratuzilmasi obyektlari bilan tanishgan edi.

Olimpiya shaharchasi qurilishiga tamol toshi qo‘yilgan 2022-yil 9-noyabr kuni Prezidentimiz inshoot me‘moriy jihatdan mukammal, energiya tejamkor va eng ilg‘or innovatsion yechimlarni mujassam qilgan zamonaviy majmua bo‘lishini ta‘kidlagandi:

— Avvalo, sportchilarimiz va federatsiyalarni mana shunday maskan bilan tabriklayman.



muassasalari uchun ham qulaylik yaratib, sport sohasining barcha tarmoqlarini bir-biri bilan uzviy bog‘laydigan ulkan markazga aylandi. Beshta asosiy sport majmuasidan tashqari hududda futbol, tennis, xokkey kabi sport turlari uchun ochiq maydonlar, paralimpiya yotoqxonasi, sport tibbiyoti markazi va ilmiy-tadqiqot muassasalari joylashgani uning imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda.

— Yangi, muhtasham sport majmuasining qurib bitkazilishi faqat xalqimizning emas, jahon sport hamjamiyatining ham olamshumul yutug‘i bo‘ldi, — deydi Milliy olimpiya qo‘mitasi bosh kotibi Oybek Qosimov. — Zero, sport dunyoda do‘stlik, o‘zaro teng manfaatli hamkorlik, tinchlik va rivojlanishni targ‘ib etishda muhim vosita hamdir. Prezidentimiz ushbu loyihani yaratish g‘oyasi tug‘ilgan ilk kunlardayoq yana bir masalaga e‘tibor qaratdi. Ya‘ni bunday ulkan inshootlar faqat sport musobaqalari o‘tadigan joy bo‘libgina qolmasligi, mamlakatning sport salohiyatini yuksaltirish, yoshlar, sportchilar, jumladan, xalqimiz sport bilan shug‘ullanishida uning bazasidan oqilona foydalanish masalasi kun tartibiga ko‘tarildi. Ushbu majmuani loyihalashtirish bosqichidan toki qurilishigacha ana shu masalalar ham e‘tiborda bo‘ldi.

Qisqa muddat ichida qurib bitkazilgan shaharcha yurtimiz sport siyosatida yangi bosqichni boshlab berdi. U sport siyosatidagi

Bu yilning yosh avlod salomatligiga, bo‘lajak yutuqlarga katta poydevor qurdi. Lekin bu ishning eng osoni. Qiyini — sport turlarini ommalashtirish, professional sportchilarni tayyorlash. Biz sportni ham salomatlik, ham natijadorlik nuqtayi nazaridan rivojlantirib boramiz. Xudo xohlasa, bunday Olimpiya shaharchalari viloyatlarda ham quriladi. Asosiy maqsad — yoshlarimizning sog‘lom va barkamolligi.

Mutasaddilarga sohani raqamlashtirish, sport federatsiyalari faoliyatini kuchaytirish, natijador sport turlarini ko‘paytirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

— Olimpiya shaharchasi mamlakatimiz sportining ilmiy, amaliy, o‘quv-mashg‘ulot markazi, davlat siyosatining uzviy qismi sifatida yurtimiz yoshlari uchun yangi imkoniyatlar ehsigini ochadi, — deydi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Fan, ta‘lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo‘mitasi raisi Nodir Jumayev. — U orqali nafaqat yuqori sport natijalariga erishish, balki ommaviy sportni keng yo‘lga qo‘yish, aholi salomatligini mustahkamlash, yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash kabi ustuvor vazifalar hal etiladi. Bunyod etilgan Olimpiya shaharchasi oddiy sport inshooti emas, balki yangi O‘zbekiston sport siyosatining istiqbolini belgilaydigan tarixiy loyihadir.

III

Yana bir jihat: Prezidentimizning shu yil 8-iyuldagi qarori bilan O‘zbekiston sportchilarini 2028-yilgi Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlariga tayyorlash dasturi qabul qilindi. Ishlarni tizimli tashkil etish maqsadida Milliy olimpiya qo‘mitasining 14 ta hududiy bo‘limi tashkil etildi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari Olimpiya harakatini rivojlantirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maxsus vakili etib belgilandi. Har bir hududga Sport vazirligi va Olimpiya qo‘mitasidan mas‘ullar birkitrildi.

Asosiy maqsad yuqori sport natijalariga erishish uchun doimiy va mustahkam zamin yaratishdir. Shuningdek, iqtidorli sportchilarni eng quyi bo‘g‘indan boshlab saralash va professional etib tayyorlash uchun uch bosqichli “Yangi O‘zbekiston Olimpiya cho‘qqilari” musobaqasi yo‘lga qo‘yildi. Uning final bosqichi har yili Olimpiya shaharchasida Prezident Olimpiyasi sifatida o‘tkaziladi. G‘olib va sovrindor sportchilar Olimpiya markazlariga jalb etilib, professional tayyorgarlik bosqichiga kirishadi.

Davlatimiz rahbari 26-noyabr kuni Olimpiya shaharchasidagi stadionda Prezident Olimpiyadasiing tantanali ochilish marosimida ishtirok etdi va nutq so‘zladi.

— Bugun yangi O‘zbekiston timsoli bo‘lgan mana shu muazzam Olimpiya shaharchasida sizlar bilan birga Prezident Olimpiyasi o‘yinlariga start bermoqdami. Mamlakatimizda birinchi marta o‘tkazilayotgan, butun yurtimiz yoshlarini olimpiya harakatining egzu g‘oyalari asosida birlashtirayotgan ushbu sport bayrami barchamizga muborak bo‘lsin! — dedi davlatimiz rahbari.

O‘yinlar nizomiga muvofiq, Olimpiya shaharchasida boks, erkin va ayollar kurashi, Chirchiq olimpiya va paralimpiya sport turlari markazida og‘ir atletika, gimnastikaga ixtisoslashtirilgan respublika bolalar va o‘smirlar olimpiya xazinalari maktabida badiiy gimnastika musobaqalarining dastlabki bellashuvlari bo‘lib o‘tdi.

26-noyabrdan yunon-rum kurashi va yengil atletika musobaqalari start olgan bo‘lsa, 30-noyabrdan basketbol o‘yinlari, 2-dekabrda stol tennis musobaqalariga kirishiladi. 10 ta

va 310 ta sport maktabidan 100 mingdan ortiq yosh ishtirok etdi. Eng yuqori natijaga erishgan 3 mingdan ziyod o‘g‘il-qiz Prezident Olimpiyadasi g‘alaba qozondi.

Bundan buyon har yili o‘tkaziladigan Prezident Olimpiyasi yangi iqtidorlarni kashf qilib, samarali seleksiya tizimiga aylanadi. Kelgusi yildan boshlab suv sporti, velosport, triatlon, qilichbozlik va jamoaviy o‘yinlar bo‘yicha ham musobaqalar o‘tkazilib, sport turlari soni 20 taga yetkaziladi. 2026-yilda 46-jahon shaxmat olimpiyasi, 2027-yilda 20 yoshgacha bo‘lgan futbolchilar o‘rtasida jahon chempionati hamda 2029-yilda yoshlar Osiyo o‘yinlari O‘zbekistonda o‘tkaziladi.

— Bunday yirik musobaqalar xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz uchun katta bayram, katta mahorat maktabi bo‘ladi, mamlakatimizning do‘stlik va hamkorlik diyorlari sifatida xalqaro obro‘-e‘tiborini yanada oshiradi. Prezident Olimpiyasi tizimi esa, hech shubhasiz, bunday musobaqalarga javohir sportchilarni tanlab olishga, xususan, 2028-yilda Los-Anjelesda o‘tadigan Olimpiya o‘yinlari uchun har bir hududdan litsenziyalari sonini ko‘paytirishga xizmat qiladi, — dedi Prezidentimiz.

IV

Davlatimiz rahbari Prezident Olimpiyadasi musobaqalarining tantanali ochilish marosimida nutq so‘zlayotgan pallada dunyo uzra bir xushxabar tarqaldi: “O‘zbek o‘g‘loni Javohir Sindorov shaxmat bo‘yicha jahon kubogi g‘olibi!”. Prezidentimiz marosimdagi nutqini to‘xtatib, quvonchli yangilik — yurtdoshimizning g‘alabasini e‘lon qildi va chempionni kutladi. Yig‘ilganlar ham Javohirni olqishladi.

— Ushbu buyuk g‘alaba bilan chin dildan tabriklayman. Sen o‘zbek o‘g‘loni, yangi O‘zbekiston farzandi nimalarga qodir ekanini dunyoga ko‘rsata olding. Sende farzandim borligi bilan faxrlandim, xalqimiz faxrlandi. Ilohim, g‘oliblik yo‘li bardavom bo‘lsin, — dedi davlatimiz rahbari marosimdan so‘ng telefon orqali chempionni tabriklab.



olimpiya sport turida o‘tayotgan va 5-dekabrga qadar davom etadigan bahslarda 15-17 yoshdagi yosh va umidli sportchilar ishtirok etmoqda.

Musobaqaning tuman va viloyat bosqichlarida umumta‘lim maktablaridagi sport to‘garaklari, xususi sport klublari

O‘z navbatida, Javohir Sindorov bu g‘alaba kelgusidagi yanada ulkan zafarlarning boshlanishi ekaniga umid bildirib, jahon shaxmat tojini ham vatanimizga olib kelamiz deb va‘da berdi. Yaratilgan imkoniyat va ko‘rsatilayotgan e‘tibor uchun Prezidentimizga minnatdorlik izhor etdi.

V

Joriy yil 2-oktabr kuni FIFA kengashi yig‘ilishida futbol bo‘yicha 20 yoshgacha bo‘lganlar o‘rtasida 2027-yilgi jahon chempionatini O‘zbekiston va Ozarbayjonda o‘tkazish qarori qabul qilindi. Uning doirasidagi o‘yinlar ikki mamlakatdagi 3 tadan stadionda o‘tkaziladi. Final va yarim final o‘yinlari sig‘imi 50 mingdan ko‘p bo‘lgan stadionda o‘tkazilishi FIFA talablaridan biri hisoblanadi.

Shu bois, mamlakatimiz futbol uchun muhim yana bir yirik loyiha — Yangi Toshkent stadioni qurilishiga start berildi. Prezidentimiz 11-noyabr kuni zamonaviy futbol stadioni qurilishiga tamol toshi qo‘ydi. Yangi Toshkent hududidagi barcha loyihalar zamonaviy me‘morlik va milliy qadriyatlar uyg‘unligida ekologik va “aqli boshqaruv”ga asoslanib barpo etilmog‘da. Shu umumiy konsepsiya asosida quriladigan yangi stadion ham tabiat bilan uyg‘un bo‘ladi hamda “yashil energiya” va “qulay muhit” tamoyillariga asoslanadi.

Yangi Toshkent stadioni FIFAning barcha talablariga mos ravishda barpo etiladi hamda Osiyodagi eng yirik va zamonaviy infratuzilimga ega futbol maydonlaridan biri bo‘ladi. Bu inshoot ertaga nafaqat 2027-yilgi 20 yoshgacha bo‘lganlar o‘rtasidagi jahon chempionati, balki butun o‘zbek futbol va yoshlar sportining kelgusi rivoji uchun ham xizmat qiladi.

Ellik besh ming o‘rinli yangi stadion milliy jamoamizdan tashqari professional klublarimiz uchun ham katta imkoniyat yaratadi. Endi nufuzli xalqaro musobaqalarni yurtimizda o‘tkazish, dunyo futbol elitasi bilan hamkorlik qilish imkoni paydo bo‘lmoqda. Bu orqali mamlakatimizda sport turizmi, zamonaviy tadbirlar madaniyati ham rivojlanadi.

Quvonarlisi, sport sohasiga qaratilayotgan alohida e‘tibor tufayli mazkur va yana boshqa yirik sport inshootlarini barpo qilishga vaziyat yetiladi. Zero, sportchilarimiz erishayotgan, qo‘lga kiritayotgan ulkan yutuqlar, yurtimizning ko‘plab nufuzli tadbirlarga, jumladan, jahon miqyosidagi xalqaro sport musobaqalariga mezbonlik qilayotgani bunga izn beradi.

Futbol bo‘yicha olimpiya jamoamiz Parij — 2024 Olimpiyadasida birinchi marta ishtirok etdi. Tariximizda ilk bor milliy terma jamoamiz kelgusi yilda o‘tadigan jahon chempionati yo‘llanmasini qo‘lga kiritdi. O‘zbekiston o‘smirlar (U17) terma jamoasi murakkab, mashhaqqatli va matonati yo‘lni bosib o‘tib, o‘z tarixida uchinchi marta Osiyo chempionati finaliga chiqdi va qahramonlarcha g‘alaba qozondi. Ular Qatarda o‘tgan jahon birinchiildagi ham Osiyo chempioni sifatida mamlakat sharafini munosib himoya qildi, nomdor jamoalardan nafaqat qolishmasligini, balki ustun ham ekanini isbotladi.

VI

Dunyoda bir mamlakat bayrog‘i boshqa davlat hududida ko‘tarilib, madhiyasi yangrashi uchun ikkita sabab bor: birinchi — oliy darajadagi tashrif, ikkinchi — sport musobaqasidagi g‘alaba! Ana shu ikkinchi sabab xuddi birinchi kabi bizni doim hayajonga soladi, qalbmizda iftixor tuyg‘usini kuchaytiradi.

Maqola avvalida bitta mahalla uchun tiklangan stadion ortidan bolajonlar quvonchi, hayrati, qoniqishi haqida so‘z ochgan edik. Bugun ana shu holatni har birimizda kuzatish mumkin. Zero, barcha sa‘y-harakat — ushbu bunyodkorlik, islohot, g‘alaba va natijalar sport muxlisliyu ishqibozlari uchun. O‘sha muxlis esa siz bilan men, ya‘ni xalqimizdiki.

Har qanday jamiyat iqboli, yuksalishlar tamal toshi ilm-fan va ta’limga asoslanadi. Ta’lim inson kapitalini shakllantirishdagi asosiy vosita bo’lib, milliy iqtisodiyot, madaniyat va ijtimoiy hayotning barqaror o’sishi uchun muhim poydevor. Shuning uchun ham so’nggi yillarda mamlakatimizda ta’lim-tarbiya sohasini rivojlantirish, zamon talablariga mos holda isloh etish davlat siyosati darajasiga ko’tarildi. Yosh avlodning jahon andozalariga muvofiq bilim olishi, zamonaviy kasb-hunarlariga ega bo’lishi uchun barcha imkoniyat va resurslar safarbar etilmoqda. Ayniqsa, “Yangi O‘zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi” degan ezgu g’oya asosida xalq ta’limi tizimini rivojlantirish keng qamrovli, umumxalq harakatiga aylandi.

E’tirof

Xushxabar

Yaqinda Times Higher Education (THE) xalqaro reyting agentligi tomonidan “Interdisciplinary Science Rankings 2026” — fanlararo ilmiy tadqiqotlar bo’yicha dunyo universitetlari reytingi e’lon qilindi. 94 mamlakatdan 1267 oliy ta’lim muassasasi ishtirok etgan reytingdan O‘zbekistonning 34 ta oliy o’quv yurti ham o’rin olgan. Ularning 6 tasi eng yaxshi 500 talik ro’yxatga kiritildi. Qolganlari esa “reporter” — nomzod maqomida qayd etildi.

XALQARO REYTINGDA NAVBATDAGI NATIJA



Mazkur natija mamlakatimiz oliy ta’lim tizimida fanlararo ilmiy izlanishlar, ilmiy salohiyatni mustahkamlash va xalqaro akademik hamkorlikni kengaytirish borasida izchil taraqqiyot kuzatilayotganini ko’rsatadi.

— Bu tizimdagi izchil islohotlar samarasidir, — deydi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining birinchi o’rinbosari Sardor Rajabov. — Mamlakatimizda oliy ta’lim muassasalari sonining 204 taga yetgani, o’quv dasturlarining global standartlarga muvofiqlashtirilgani, xalqaro akkreditatsiyalar ulushi ortgani, akademik mobillik faollashgani — barchasi milliy ta’lim tizimining ochiq, raqobatbardosh va global miqyosda integratsiyalashuvga qodir ekanini ko’rsatmoqda.

Shuningdek, Buyuk Britaniya, AQSH, Janubiy Koreya, Yaponiya, Singapur, Turkiya va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan qo’shma universitetlar tashkil etgani, ikki

diplomli dasturlarni keng joriy qilgan jahon ta’lim makonida ilmiy-innovatsion ekotizimning muhim ishtirokchisi sifatida mamlakatimiz mavqegini mustahkamlamoqda.

Oliy ta’lim muassasalarimiz global reytinglarda tobora ko’proq ishtirok etmoqda. Bu xalqaro standartlarga integratsiyalashuvimiz, akademik mukammallikka sodiqligimiz va dunyoga ochiqligimizni namoyish etadi. Bugunga qadar 20 dan ortiq universitetdagi 90 ga yaqin akademik dastur xalqaro akkreditatsiyadan o’tgan. Bundan tashqari, so’nggi QS World University Rankings ma’lumotlariga ko’ra, O‘zbekistonning 7 ta universiteti hozir dunyoning yetakchi oliy ta’lim muassasalari ro’yxatiga kiritilgan. Ulardan 3 tasi eng yaxshi 1000 ta universitet qatoridan joy olgan.

Risolat MADIYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Jamiyat yuksalishi ILMGA BOG‘LIQ

Mana shunday yuksak maqsadlarga erishishda, albatta, ta’lim sohasining asosiy tayanchi bo’lgan ustoz va murabbiylarning o’rni beqiyos. Shu jihatdan ularga chuqur ehtirom va e’tirofini amaliy jihatdan ifoda etish maqsadida davlatimiz tomonidan qator tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Xususan, joriy yilda Prezidentimiz farmoniga ko’ra, Oqdaryo tumanidagi 6-umumiy o’rta ta’lim maktabining biologiya fani o’qituvchisi Lobar Boyqobilova “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko’rsatgan xalq ta’limi xodimi” faxriy unvoni bilan taqdirlandi.

O’qituvchilikni hayotining mazmuni deb bilgan Lobar Boyqobilova 31 yildan buyon ushbu maktabda faoliyat yuritib kelmoqda. Yillar davomida u yuzlab o’quvchilarga nafaqat bilim, balki hayot sabog’larini ham bermoqda. Bugun ta’lim sohasida yaratilayotgan zamonaviy sharoitlar, fan laboratoriyalari, interaktiv darslar muallimning ish uslubini yanada samarali qilyapti.

— O’qituvchining qaddi yuksalgan davr keldi, — deydi Lobar opa. — Ayniqsa, pedagoglarni yanada qo’llab-quvvatlashga qaratilgan qator yangi tashabbuslar, jumladan, yangi yildan boshlab 15 yildan kam bo’lmagan mehnat stajiga ega oliy toifali o’qituvchilar uchun ipoteka krediti boshlang’ich badalining 25 foizi davlat tomonidan qoplanishi, kelgusi o’quv yilida davlat oliygohlariga o’qishga kirgan pedagoglar farzandlarining kontrakt summasiga 30 foiz chegirma berilishi va boshqa imtiyozlardan boshimiz ko’kka yetdi. Ha, o’qituvchi va murabbiylarning ahvoriga havas qilib bo’lmaydigan davrlarni ham ko’rdik. Qishloq xo’jaligida maktab o’qituvchilari eng arzon, aniqrog’i, tekin ishchi kuchi bo’lib xizmat qildi. Ayniqsa, paxta mavsumida oylab sinfimizga kirmas edik. O’qituvchining salohiyati bilimi, kasbiy mahoratiga qarab emas, balki u topsihratilgan paxta salmog’iga, kunlik normani bajarishiga qarab baholalanardi. Bugun esa vaziyat tubdan o’zgarmoqda. Endi muallimlarning asosiy vazifasi bilim berish, o’z ustida tinimsiz ishlash va kasbiy salohiyatini oshirishdan iborat.

Pedagog bugungi uzluksiz o’qitish tizimi, xususan, maktabgacha ta’limning ahamiyati haqida to’xtalar ekan, jumladan, bunday dedi:

— Bir paytlar bog’chalar yetishmasdi. Uch farzandimni yetaklab, ularni bir kuni onamnikida, bir kuni qarindoshlarimnikida qoldirib, maktabga shoshilardim. Ko’nglimda doim xavotir bo’lardi. Bugun esa har bir mahallada ikki-uchtadan bolalar bog’chasi bor. Shu asnoda ayol o’qituvchilar uchun sharoitlar ancha yaxшилandi, ko’ngli xotirjam, bemaolol ishlaydi. Shogirdlarim ana shunday qulay sharoitda ishlab, xalqaro tanlovlarda ishtirok etib, yutuqlarga erishmoqda. Buning barchasi yurtimizda ta’lim tizimi to’g’ri yo’lga qo’yilganidan dalolat beradi.

Darhaqiqat, so’nggi yillarda xalq ta’limi tizimida amalga oshirilayotgan keng ko’lamli islohotlar nafaqat o’qitish sifatiga, balki muallimning jamiyatdagi nufuziga ham ijobiy ta’sir ko’rsatmoqda. Ayniqsa, maktab o’qituvchilarining mavqegini oshirish, ularni moddiy va ma’naviy jihatdan qo’llab-quvvatlash borasida muhim ishlarni qilimoqda. Jumladan, oylik maoshlarning sezilarli darajada oshirilishi, uy-joy, avtotransport, maishiy texnika kabi zarur ehtiyojlar uchun

imtiyozli kreditlar taqdim etilayotgani natijasida pedagoglarning turmushi nafaqat yaxшилandi, balki o’qituvchilikni yanada jozibador kasbga aylantirdi.

Prezidentimiz farmoniga binoan taqdirlanganlar orasida ushbu tumandagi 47-maktabning matematika fani o’qituvchisi Baxtiyor Hasanov ham bor. U fidokorona mehnati va ta’lim sohasidagi 36 yillik samarali faoliyati uchun “Do’slik” ordeni bilan mukofotlandi.

— Yurtimizda ustoz va murabbiylarga chuqur hurmat-ehtirom ko’rsatilmoqda. O’qituvchi maqomi yil sayin yuksalmoqda, — deydi Baxtiyor Hasanov. — Bir paytlar maoshimiz kamligidan ta’tilda ustachilik qilib, ro’zg’or tebratishga majbur edik. O’sha kunlardan xulosa chiqarib, bugunga nazar tashlasangiz, ta’lim sohasida yuz bergan ulkan o’zgarishlarni yaqqol ko’rasiz. Hozir o’qituvchilar munosib maosh olish barobarida o’z ustida muntazam ishlash, malaka oshirish, ilg’or pedagogik tajribalarni o’zlashtirish uchun keng imkoniyatga ega. Shogirdlarimdan bir nechtasi ming dollardan ortiq maosh olib, farovon hayot kechirmoqda. Ularga qarab, xursand bo’laman, faxrlanaman va albatta, havas qilaman. Bu kabi muvaffaqiyatlar, avvalo, ta’lim

sohasidagi islohotlar, yoshlarga yaratilayotgan keng imkoniyatlar samarasidir. Haqiqatan, bugun o’qituvchi jamiyat kelajagini shakllantiruvchi asosiy shaxs sifatida e’tirof etilmoqda. Bu e’tirof va mukofot biz, ustozlarga yuksak ishonch va hurmatning yorqin ifodasidir.

Bugun Baxtiyor Hasanov zamonaviy o’quv xonalarda elektron va multimedialiy vositalar yordamida interaktiv va qiziqarli ta’lim beryapti. U bir paytlar zax va nimqorong’i sinfxonalarda mashaqqat bilan dars o’tgan chog’larini bunday eslaydi:

— Ta’lim berish men uchun nafaqat kasb, balki katta mas’uliyatdir. Ayniqsa, hozir barcha sharoit muhayyo qilingan davrda yoshlarga ta’lim berish juda ham zavqli. Bir paytlar informatika sinfxonasida bir dona ham kompyuter bo’lmagan. Shuning uchun darslarimiz faqat nazariy bo’lar edi. Hozir maktabimizda 60 dan ortiq eng so’nggi rusumdagi kompyuter, noutbuk va boshqa zarur texnik vositalar mavjud. Bu imkoniyatlar o’quvchilarning bilimini yuqori darajaga olib chiqdi. Shunday sharoitda o’qituvchi sifatidagi vazifam bu imkoniyatlardan foydalanib, o’quvchilarga eng samarali, mazmunli va qiziqarli darslarni tashkil etishdir. Doim o’quvchilarning bilimni mustahkamlash va ularni yangi ma’lumotlar bilan ta’minlashga harakat qilaman. Zero, kelajak mutaxassislarini tarbiyalash katta mas’uliyat va sharaftir.

Albatta, jamiyat taraqqiyoti va yurt ravnaqida ta’limning o’rni juda muhim. Bu sohada tinimsiz mehnat qilayotgan ustozlar, jonkuyar yurtdoshlarimiz faoliyati har qanday maqtov va nufuzli mukofotlarga loyiq.

Shuhrat NORMURODOV,
jurnalist

Taraqqiyot sari

Hozir farzandini nodavlat bog’cha va maktablarga joylayotgan ota-onalar ko’payib borayotgani xususiy sektorga ishonch ortayotganini ko’rsatayapti. Biroq “Ta’lim biznesga aylanyapti”, deyidiganlar ham yo’q emas. To’g’ri, xususiy ta’lim-tarbiya muassasalarini tadbirkorlar ochadi. Ular o’z bog’cha-maktabining eng zamonaviy ta’lim dargohlari qatorida bo’lishi uchun mablag’ni ayamaydi. Eng salohiyatli o’qituvchilar jamoasini shakllantiradi. Ilg’or, zamonaviy ta’lim texnologiyalarini joriy qiladi. Katta miqdorda investitsiya kiritilganidan so’ng, albatta, manfaatdorlik kutiladi.

Mamlakatimiz ta’lim sohasida nodavlat sektor ulushini oshirishga alohida e’tibor berilyapti. 2017-yilda 30 ta xususiy maktab faoliyat yuritgan bo’lsa, hozir bu ko’rsatkich bir necha barobar ortgan. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasining 2025-yilga mo’ljallangan amaliy tadbirlar rejasida umumiy o’rta ta’limni rivojlantirish uchun xususiy sektorni keng jalb qilish vazifasi belgilangan. Mas’ullarga joriy yilda nodavlat umumiy o’rta ta’lim tashkilotlari sonini 700 taga yetkazish choralari ko’rish vazifasi topshirilgan.

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi ma’lumotiga ko’ra, mutasaddilar tomonidan yil davomida 14 ta hududda ta’lim sohasida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlari bilan uchrashuvlar tashkil etildi. Ularga nodavlat umumiy o’rta ta’lim tashkilotlarini tashkil etish yuzasidan kerakli taklif va tavsiyalar berildi. Shuningdek, tadbirkorlarga nodavlat umumiy o’rta ta’lim xizmatlarini ko’rsatish uchun Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlangan Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to’g’risidagi yagona nizomda belgilangan litsenziya talablari va shartlari mazmun-mohiyati yuzasidan tushuntirishlar berilyapti.

Bundan tashqari, nodavlat ta’lim tashkilotlariga berilgan soliqliq imtiyozlarining amal qilish muddati 2030-yil 1-yanvargacha qadar



uzaytirilgani ham yana bir imkoniyat ekanini ta’kidlanmoqda. Nima uchun nodavlat ta’lim muassasalarini ko’paytirishga harakat qilaymiz degan savolga javoban xususiy maktablarning

NODAVLAT SEKTOR ULUSHI KO’PAYSA RAQOBAT muhiti yaratiladi, SIFAT ORTADI



ortishi ta’lim tizimiga, eng avvalo, sifat, qamrov va innovatsiya olib kirishini aytish kerak. Ta’lim tashkilotlari o’rtasida sog’lom raqobat muhiti shakllanadi. Bu esa o’quv dasturlari tez yangilanishi, zamonaviy metodikalar va xalqaro standartlar joriy etilishiga sabab bo’ladi. Shuningdek, xususiy sektor o’z mablag’i hisobidan infratuzilma yaratadi. Bu davlat byudjetiga tushadigan bosimni kamaytirib, mablag’ni davlat maktablarini modernizatsiya qilish hamda ijtimoiy himoyaga yo’naltirish imkonini beradi. Ta’lim qamrovini oshirib, aholi soni o’sishiga mutanosib ravishda talab va taklif muvozanatini ta’minlaydi.

Hozir ta’lim faoliyatiga kirishayotgan ishbilamonlar davlatning qo’llovi, imkoniyat va imtiyozlar keskin organi uchun ham bu ishni dadil boshlay oloyapti. Chunki 2017-yilga qadar bunday faoliyat boshlash uchun 9-10 ta hujjat taqdim etish kerak edi. Ayni paytda

ro’yxat ancha qisqargan va ariza topshirish jarayoni avtomatlashtirilgan. Shu bilan birga, bugun tadbirkorning hujjatlarida hech qanday kamchilik aniqlanmasa, yangi tizim orqali 15 ish kunida inson omili aralashuvsiz avtomatik tarzda litsenziya chiqarib beriladi. Bularning barchasi tadbirkorlar faoliyatini rag’batlantirish, ta’lim sohasida davlat va xususiy sektor ishtirokini baravar ta’minlashga xizmat qilmoqda. Joriy yilning shu davriga qadar 132 ta xususiy maktabga litsenziya rasmiylashtirilib, ayni paytda ularning umumiy soni 705 taga yetdi. Bu maktablarda o’qiyotganlar esa 150 mingdan oshdi.

Xususiy maktablarda o’qishga qiziqish ortishidagi yana bir muhim jihat, ularning xalqaro baho berish tizimlari (masalan, IB)ni keng qo’llashida. Bu o’quvchilarga xorijdagi oliy o’quv yurtlariga kirishda afzallik berishi bilan ahamiyatli. IB (International Baccalaureate) jahon standartlariga asoslangan

ta’lim dasturi bo’lib, ko’plab mamlakatlarda tan olinadi va qator xorij universitetlari tomonidan yuqori baholalanadi. Ushbu dastur o’quvchilarning tahlil qilish, muammolarni mustaqil yecha olish, mulohaza qilish, tanqidiy fikrlash kabi ko’nikmalarini shakllantirishda muhim o’rin tutadi. IB va boshqa xalqaro diplomlarning xalqaro darajada tan olinishi o’zbekistonlik bitiruvchilarning yetakchi universitetlarga o’qishga kirish imkoniyatini kengaytirmoqda.

Nodavlat maktablar faoliyati davlat sektoriga ham ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Xususan, ular pedagoglar o’rtasida sog’lom raqobatni kuchaytirib, davlat maktablari o’qituvchilarining malakasini oshirish va rag’batlantirish tizimi rivojlanishiga katta hissa qo’shadi. Malaka va raqobat o’sishi natijasida esa davlat sektori ham sifdoli kadrlar bilan boyib boradi.

Yana bir jihat shundaki, ilg’or infratuzilma va raqamli texnologiyalardan foydalanish amaliyoti davlat maktablarining ham texnik jihatdan modernizatsiya qilinishiga turki bo’lyapti. Bundan tashqari, nodavlat maktablardagi samarali boshqaruv, ota-onalar bilan ishlash madaniyati va hisobdorlik amaliyoti davlat maktablari ham qo’llana boshladi. Umuman olganda, xususiy sektor tajribasi davlat ta’lim tizimi yangilanishini tezlashtiruvchi va sifati oshishiga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida namoyon bo’lmoqda.

Bugun eng dolzarb masalalardan bo’lib turgan inklyuziv ta’limni rivojlantirish borasida ham nodavlat sektorning o’rni katta. 2025-yil 1-yanvardan boshlab maktabgacha va umumiy o’rta ta’lim xizmatlari faoliyat turi bo’yicha litsenziya berishda obyektida shaharsozlik norma va qoidalarida belgilangan talablarga muvofiq, nogironlik bo’lgan shaxslarga to’siqsiz muhit yaratilgani bo’yicha Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiya sinning xulosasini olish talab qilinishi belgilab qo’yilgan. Ya’ni talabgorlar belgilangan shartlarni to’liq bajarishi orqali litsenziya olishi mumkin. Shu tariqa hozir xususiy maktablardagi metodik va innovation tajriba maktabda inklyuziv ta’limni rivojlantirishda qo’llanishi uchun potensial imkoniyatlar yaratadi. Bu, o’z navbatida, davlat ta’lim sohasida ham keng qamrovli va sifdoli ta’limni ta’minlashga xizmat qiladi.


Nodavlat maktablar O‘zbekiston ta’lim tizimida sifat, raqobat, innovatsiya tanlov imkoniyatlarini oshiruvchi asosiy drayverlardan biriga aylanishi mumkinmi degan savol tug’iladi. Albatta, nodavlat maktablar yaqin kelajakda ta’limda drayver sifatida shakllanadi. Ularimg zamonaviy metodikasi, yuqori malakali pedagoglari va zamonaviy infratuzilmasi davlat maktablarini ham o’quv jarayonini yangilash, pedagog kadrlarni rivojlantirish va ota-onalar talabini hisobga olgan holda xizmat sifatini oshirishga undaydi.

Shu bilan birga, xususiy maktablarda taqdim etilayotgan xalqaro standartlar va ixtisoslashgan yo’nalishlar butun tizimdagi tanlov imkoniyatlarini kengaytiradi va innovatsion o’zgarishlarni jadallashtiradi.

Umuman olganda, nodavlat sektorning faolligi davlat ta’lim tizimi uchun yangilanish, raqobat va sifdoli kuchaytirishning muhim mexanizmiga aylanishi mumkin.

Munojat MO’MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri





Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.